RAVON NUTQ KOMPETENSIYASINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abdullayeva Charos Farxodovna Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

e-mail: abdullayevacharos710@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ravon nutq kompetensiyasini differensial yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ravon nutqni shakllantirish jarayonida individual yondashuv, darajaga mos nutqiy vazifalar, multimodal muhit, strategik kompetensiyani rivojlantirish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va moslashuvchan baholashning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, nutqiy avtomatizatsiya, motivatsion muhit hamda interaktiv metodlarning ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda izohlangan. Tadqiqot natijalari differensial yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning kommunikativ faolligi va spontan nutq ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ravon nutq kompetensiyasi, differensial yondashuv, kommunikativ kompetensiya, speaking, pedagogik shart-sharoitlar, multimodal ta’lim, strategik kompetensiya, scaffolding, interaktiv metodlar, CEFR.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING FLUENT SPEECH COMPETENCE BASED ON A DIFFERENTIAL APPROACH

Annotation: This article analyzes the pedagogical conditions for developing students’ fluency competence through a differentiated approach. The study highlights the importance of individualized instruction, level-based speaking tasks, multimodal learning environments, strategic competence development, pedagogical support, and flexible assessment in the process of speech fluency development. Furthermore, the role of speech automatization, motivational environment, and interactive methods in improving communicative competence is scientifically explained. The findings indicate that differentiated instruction significantly enhances students’ communicative activity and spontaneous speaking skills in foreign language learning. Humans spent centuries inventing grammar rules only to discover students still freeze when asked to “speak freely for two minutes.” Educational irony remains undefeated.

Keywords: fluency competence, differentiated approach, communicative competence, speaking skills, pedagogical conditions, multimodal learning, strategic competence, scaffolding, interactive methods, CEFR.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ БЕГЛОЙ РЕЧИ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО ПОДХОДА.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические условия развития компетенции беглой речи студентов на основе дифференцированного подхода. В исследовании раскрывается значение индивидуализированного обучения, речевых заданий с учетом уровня подготовки, мультимодальной образовательной среды, развития стратегической компетенции, педагогической поддержки и гибкого оценивания в формировании беглой речи. Также научно обоснована роль речевой автоматизации, мотивационной среды и интерактивных методов в развитии коммуникативной компетенции. Результаты исследования показывают, что учебный процесс, организованный на основе дифференцированного подхода, способствует эффективному развитию коммуникативной активности и спонтанной речи студентов.

Ключевые слова: компетенция беглой речи, дифференцированный подход, коммуникативная компетенция, устная речь, педагогические условия, мультимодальное обучение, стратегическая компетенция, scaffolding, интерактивные методы, CEFR.

Kirish. Ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish tizimli tashkil etilgan, interaktiv va talaba markazli o‘quv faoliyatini talab etadi. Kommunikativ vaziyatlarni yaratish, xatoga tolerant muhitni ta’minlash, muntazam nutqiy mashqlarni tashkil etish hamda metakognitiv nazoratni rivojlantirish ushbu jarayonning asosiy pedagogik shartlarini tashkil etadi. Mazkur shartlar differensial yondashuvni samarali qo‘llash uchun zarur metodik asos vazifasini bajaradi.

Ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishning umumiy pedagogik shartlarini izchil tahlil etadigan bo‘lsak, shubhasiz, yuqori samaradorlikka erishishi uchun ular differensial yondashuv asosida tashkil etilishi zarur. Chunki dars jarayonida ta’lim oluvchilarning til darajasi, nutqiy imkoniyatlari hamda psixologik tayyorgarligi hech qachon bir xil bo‘lmaydi. Shuni inobatga olgan holda, ravon nutqni shakllantirish jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtirilgan taqdirdagina samarali natija beradi. Bu esa o‘quv faoliyatini differensial tashkil etishni pedagogik zarurat sifatida yuzaga chiqaradi.

Differensial yondashuvning asosiy shartlaridan biri deya — nutqiy vazifalarni talabaning mavjud darajasiga mos holda tashkil etishni ta’kidlash mumkin. Ravon nutqni rivojlantirish jarayonida topshiriqning murakkablik darajasi to‘g‘ri tanlanishi alohida ahamiyatga molikdir, chunki haddan tashqari murakkab vazifalar talabaning nutqiy faollik ko‘rsatkichini pasaytiradi, aksincha ortiqcha sodda vazifalar esa rivojlanishni sekinlashtiradi. Shu bois bir xil mavzu doirasida turli darajadagi talabalar uchun differensial vazifalar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz va quyidagi tizimlarni taklif etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, boshlang‘ich darajada qisqa javob va tavsiflash, o‘rta

darajada fikrni kengaytirish, yuqori darajada esa tahlil va baholashga yo‘naltirilgan nutqiy faoliyatni tashkil etish. I.S.P. Nationning nutq ravonligini rivojlantirish mashqlari talabaning mavjud darajasiga mos bo‘lishi zarurligini ta’kidlashi fikrimizni isbotlaydi[1].

Ravon nutqni rivojlantirishning yana bir muhim pedagogik omillaridan biri — individual o‘rganish trayektoriyasini shakllantirish deb hisoblaymiz. Mazkur jarayon, differensial yondashuv doirasida har bir talabaning rivojlanish sur’ati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, unga mos nutqiy maqsadlar belgilash, individual topshiriqlar ishlab chiqish va o‘zlashtirish dinamikasini muntazam monitoring qilishni o‘z ichiga oladi. C.A. Tomlinson ham differensial ta’limning asosiy komponentlaridan biri sifatida aynan individual rivojlanish yo‘nalishini belgilash zarurligini ko‘rsatadi[2]. Bu yondashuv talabaning o‘z imkoniyatlari doirasida barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, ravon nutqni rivojlantirish uchun o‘quv jarayonida multimodal va interaktiv muhit yaratish zarur. Bunday muhitning yaratilishi turli o‘rganish uslublariga ega talabalarni nutqiy faoliyatga jalb etish imkonini beradi. Video va audio materiallar asosida muhokamalar tashkil etish, vizual stimullar yordamida nutq yaratish kabi usullar talabalarning nutqiy faolligini oshiradi hamda ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu esa o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Differensial yondashuv sharoitida baholash jarayoni ham moslashtirilgan bo‘lishi ravon nutq kompetensiyasini shakllantirishning ustuvor shartlaridan biridir. Ravon nutqni baholashda asosiy e’tibor grammatik aniqlikka emas, balki nutqning uzluksizligi, tezligi va kommunikativ samaradorligiga qaratilishi qat’iyan ta’kidlanadi. CEFR tizimi va talablarida ham ravon nutq spontan va uzluksiz nutq ishlab chiqarish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Shu sababli baholash mezonlarini differensiallash talabaning real nutqiy kompetensiyasini aniqlash uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Ravon nutqni rivojlantirishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ya’ni “scaffolding” ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ko‘ra o’qituvchi yana markazlashadi, ya’ni o‘qituvchi tomonidan tayanch iboralar berish, nutqni boshlash uchun yo‘naltiruvchi savollar taqdim etish hamda model gaplardan foydalanish talabalarga nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich egallash imkonini yaratadi. L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar aynan yordam asosida yuqori rivojlanish bosqichiga ko‘tariladi[3]. Shu bois pedagogik qo‘llab-quvvatlash differensial yondashuvning ajralmas elementi hisoblanadi.

Umumiy tahlil qilinganda, differensial yondashuv asosida ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik jihatdan moslashuvchan, tizimli va talaba ehtiyojlariga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini talab etadi. Darajaga mos nutqiy vazifalar, individual rivojlanish trayektoriyasi, multimodal muhit, moslashuvchan baholash hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlash ushbu jarayonning asosiy

komponentlarini tashkil etadi. Mazkur shartlar talabaning passiv bilim egasidan faol nutq subyektiga aylanishini ta’minlaydi.

Ravon nutq kompetensiyasini differensial yondashuv asosida rivojlantirish jarayonida vaqt omilini pedagogik jihatdan moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, an’anaviy o‘qitish modelida barcha talabalar uchun bir xil vaqt chegarasi belgilanishi ularning individual nutqiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli differensial yondashuvda vaqt resursi ham o‘quvchilarning darajasi va tayyorgarligiga mos ravishda boshqarilishi maqsadlidir. Xususan, past darajadagi talabalarga nutqiy faoliyatga tayyorlanish uchun ko‘proq vaqt ajratilishi, yuqori darajadagi talabalar uchun esa spontan nutq vazifalarini joriy etishilishi shular jumlasidandir. I.S.P. Nation o‘z tadqiqotlari davomida nutq ravonligini rivojlantirishda vaqt bosimi va tezkorlik omilining muhimligini alohida ta’kidlaydi. Shu bois “timed speaking” kabi mashqlarni bosqichma-bosqich joriy etish pedagogik jihatdan samarali uslub deb ishonamiz.

Ravon nutqni rivojlantirishda nutqiy strategiyalarni o‘rgatish ham muhim metodik yo‘nalishlardan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalar ko‘pincha grammatik bilimga ega bo‘lishiga qaramay, nutqni davom ettirishda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa ularning strategik kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli o‘quv jarayonida fikrni davom ettirish iboralari, vaqt yutish strategiyalari hamda muqobil ifoda vositalarini o‘rgatish zaruriyati paydo bo‘ladi. M.Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiya tarkibida strategik komponentni alohida ajratib ko‘rsatadi[4]. Mazkur yondashuv talabalarga nutq jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni mustaqil yengib o‘tish imkonini beradi.

Ravon nutqning yana bir muhim xususiyati sifatida avtomatiklikni keltirish mumkin. Ushbu sifat takroriy nutqiy faoliyat orqali shakllanadi va differensial yondashuvda bir xil mavzuni turli kontekstlarda qayta ifodalash, qayta hikoya qilish hamda vaqtni qisqartirish asosida nutqni takrorlash kabi metodik usullardan foydalanishni talab qiladi. Ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo’yicha mutaxassis sifatida I.S.P.Nation takroriy nutq mashqlari ravon nutq rivojining asosiy mexanizmlaridan biri ekanligini o‘z tadqiqoti doirasida asoslab beradi. Bu esa nutqiy faoliyatni faqat epizodik emas, balki tizimli ravishda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Ravon nutqni rivojlantirishda talaba–talaba o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirish yani “peer learning” metodi ham muhim pedagogik shart hisoblanadi. Juftlikda ishlash, kichik guruh muhokamalari va “information gap” tipidagi mashqlar talabalarning o‘zaro kommunikativ faolligini oshiradi. M.H. Long ham o‘z ishlanishlari doirasida interaksion gipotezasida til o‘rganish jarayoni aynan muloqot orqali samaraliroq kechishini ta’kidlaydi [5]. Shu bois differensial yondashuvda o‘qituvchi markazli muloqotdan talaba markazli interaksiyaga o‘tish zarur.

Shuningdek, nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich murakkablashtirish differensial yondashuvning muhim didaktik tamoyillaridan biridir. Bunda nazoratli

nutq (controlled speaking), yarim erkin nutq (guided speaking) va erkin nutq (free speaking) bosqichlari izchil ravishda tashkil etiladi. J. Harmer mazkur bosqichlar orqali nutqiy kompetensiyaning samarali rivojlanishini ta’minlash mumkinligini ta’kidlaydi [37]. Bu yondashuv talabalarning nutqiy faoliyatini asta-sekin murakkablashtirish orqali ularni mustaqil kommunikatsiyaga tayyorlaydi.

Ravon nutqni rivojlantirish jarayonida motivatsion muhitni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarning nutqiy faolligi ularning ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda qiziqarli va shaxsiy tajriba bilan bog‘liq mavzularni tanlash, ijobiy baholash va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim rol o‘ynaydi. Yuqoridagi fikrlar Z. Dörnyei ilmiy izlanishlari natijasi deb topilgan sababi u motivatsiyani til o‘rganishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi[38]. Shu sababli differensial yondashuvda motivatsion omillarni ham individual xususiyatlarga mos ravishda tashkil etish zarur.

Ravon nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri zamonaviy ta’lim sharoitida texnologiyalardan differensial foydalanishdir. Video bloglar yaratish, audio yozuvlar asosida nutqiy mashqlar bajarish hamda sun’iy intellekt asosidagi platformalardan foydalanish talabalarga mustaqil nutqiy faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi deya alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘quv jarayonini an’anaviy auditoriya bilan cheklab qo‘ymasdan, kengroq kommunikativ muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, differensial yondashuv asosida ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish ko‘p omilli va tizimli pedagogik jarayon bo‘lib, unda vaqtni moslashtirish, strategik kompetensiyani rivojlantirish, nutqiy avtomatizatsiyani shakllantirish, interaktiv muloqotni tashkil etish, bosqichma-bosqich murakkablashtirish, motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash hamda texnologiyalardan samarali foydalanish asosiy o‘rin tutadi. Ushbu mexanizmlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilgandagina ravon nutqni rivojlantirish jarayoni yuqori samaradorlikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nation, I. S. P. “The four strands”, 2007.

2. Tomlinson, C. A., “How to differentiate instruction”. ASCD, 2014.

3. Vygotsky, L. S., “Mind in society”. Harvard University Press, 1978.

4. Canale, M., Swain, M., “Theoretical bases of communicative competence”, 1980.

5. Long, M., “The role of the linguistic environment”, 1996.